

SUDGACHA VA SUD JARAYONIDAGI MEDIATSIYA: QIYOSIY TAHLIL VA AMALIY JIHATLAR

Akbar Jo'rayev Abdushukur o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15916995>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimida mediatsiya institutining sudgacha va sud jarayonidagi o'rni va ahamiyatini qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari va ilmiy adabiyotlarga asoslangan holda mediatsiyaning huquqiy asoslari, sudgacha va sud jarayonidagi xususiyatlari, afzalliklari va ayrim kamchiliklari yoritiladi hamda mediatsiyaning amalda qo'llanilishi, muammolari va rivojlanish istiqbollari tahlil qilinib, mediatsiyaning sud tizimiga ta'siri, nizolarni muqobil hal etishning samaradorligi va jamiyatdagi huquqiy madaniyatni rivojlantirishdagi roli o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Mediatsiya, nizolarni muqobil hal etish, sudgacha mediatsiya, sud jarayonidagi mediatsiya, Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeks, mediator, mediativ kelishuv, ijro hujjati, maxfiylik, ixtiyoriylik, taraflarning teng huquqliligi, mediatorning mustaqilligi va xolisligi, notarial tasdiqlash, davlat boji, konfliktologiya, raqamli mediatsiya, onlayn mediatsiya

ДОСУДЕБНАЯ И СУДЕБНАЯ МЕДИАЦИЯ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Акбар Джураев Абдушукур угли

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: В данном тезисе проводится сравнительный анализ роли и значения института медиации в досудебном и судебном процессе в правовой системе Республики Узбекистан. Также на основе действующего законодательства Республики Узбекистан и научной литературы освещаются правовые основы медиации, особенности, преимущества и некоторые недостатки в досудебном и судебном процессе, а также анализируются практическое применение, проблемы и перспективы развития медиации, изучается влияние медиации на судебную систему, эффективность альтернативного разрешения споров и ее роль в развитии правовой культуры в обществе.

Ключевые слова: Медиация, альтернативное разрешение споров, досудебная медиация, медиация в судебном процессе, Гражданский процессуальный кодекс, Экономический процессуальный кодекс, медиатор, медиативное соглашение, исполнительный документ, конфиденциальность, добровольность, равноправие сторон, независимость и беспристрастность медиатора, нотариальное удостоверение, государственная пошлина, конфликтология, цифровая медиация, онлайн-медиация

PRE-TRIAL AND COURT MEDIATION: COMPARATIVE ANALYSIS AND PRACTICAL ASPECTS

Akbar Juraev Abdushukur ugli

Master's student of Tashkent State University of Law

Abstract: This thesis provides a comparative analysis of the role and significance of the mediation institute in pre-trial and judicial proceedings within the legal system of the Republic of Uzbekistan. Also, based on the current legislation of the Republic of Uzbekistan and scientific literature, the legal basis of mediation, its features, advantages, and some shortcomings in pre-trial and judicial proceedings are highlighted, as well as the practical application, problems, and prospects for the development of mediation are analyzed, the impact of mediation on the judicial system, the effectiveness of alternative dispute resolution, and its role in the development of legal culture in society are studied.

Keywords: Mediation, alternative dispute resolution, pre-trial mediation, mediation in court proceedings, Civil Procedure Code, Economic Procedure Code, mediator, mediation agreement, enforcement document, confidentiality, voluntariness, equality of the parties, independence and impartiality of the mediator, notarization, state duty, conflict resolution, digital mediation, online mediation

Zamonaviy huquqiy tizimda nizolarni hal etishning an'anaviy sud usullariga muqobil mexanizmlar tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida huquqiy islohotlar doirasida nizolarni muqobil hal etish usullari, xususan, mediatsiya instituti muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mediatsiya jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda samarali vosita sifatida e'tirof etilib, sudlarda ish hajmini maqbullashtirish va huquqiy nizolarni tezroq hal etish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni¹ (O'RQ-482, 2018-yil 3-iyul) va O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi PQ-4754-sonli Qarori² mediatsiyaning huquqiy asoslarini mustahkamladi va uning sud tizimi bilan integratsiyasini kuchaytirdi.

Mediatsiya – bu nizoli tomonlar o'rtasida betaraf uchinchi shaxs (mediator) yordami bilan ixtiyoriy kelishuvga erishishga qaratilgan jarayon. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, mediatsiya fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan yuzaga kelgan nizolarga, yakka mehnat nizolariga hamda oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Ushbu qonun mediatsiyaning asosiy prinsiplarini – taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi, mediatorning mustaqilligi va xolisligini belgilaydi.

Nazariy jihatdan, mediatsiya sud jarayonlariga nisbatan moslashuvchan va tejamkor yondashuv sifatida qaraladi. Soha ekspertlaridan A. Xaqberdiyev va M. Mamasiddiqovlar (Nizolarni muqobil hal etish usullari. Toshkent: TDYU Elektron kutubxonasi, 2025.) o'z ishlarida mediatsiyani "tomonlarning o'zaro manfaatlariga asoslangan konstruktiv

¹ O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-482-son, 3-iyul, 2018. <https://lex.uz/docs/-3805227>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, PQ-4754-son, 17-iyun, 2020. <https://lex.uz/uz/docs/-4859436>

muzokaralar jarayoni” sifatida ta’riflaydi³. Mediatsiyaning asosiy xususiyati shundaki, u sud jarayonidagi qarama-qarshi yondashuvdan farqli o’laroq, tomonlarni hamkorlikka undaydi va nizoni hal qilishda o’zaro kelishuvga erishishga yordam beradi. Mediatsiya instituti nizolarni sudgacha bosqichda ham, sud jarayoni davomida ham qo’llashga imkon beradi, bu esa fuqarolarning huquqlarini himoya qilishning samarali vositasi sifatida namoyon bo’lmoqda.

Sudgacha mediatsiya

Sudgacha mediatsiya nizoni sud organlariga topshirishdan oldin taraflarning o’zaro kelishuvi asosida qo’llaniladigan tartibdir. Mediatsiya taraflarning xohish-istagi asosida qo’llaniladi va suddan tashqari tartibda amalga oshiriladi. Bu bosqichda mediator taraflar o’rtasida yuzaga kelgan nizolarni hal qilishda vositachi rolini o’ynaydi. Sudgacha mediatsiya nizolarni hal qilishning muqobil usuli sifatida huquqiy amaliyotda keng qo’llanilib, sud tartibiga nisbatan bir qator muhim afzalliklarni taqdim etadi. Quyida Qonun nuqtai nazardan mediatsiyaning bir qator afzalliklari keltirilib o’tiladi:

Vaqt tejash. Mediatsiya sud jarayonlariga nisbatan sezilarli darajada qisqa muddatda nizolarni hal qilish imkonini beradi. Sud jarayonlari qonuniy me’yorlar, rasmiy sud majlislari, ba’zan apellatsiya va kassatsiya jarayonlari tufayli uzoq vaqt talab qiladi, ba’zan bir necha oy yoki yillarga cho’zilishi mumkin. Mediatsiya esa moslashuvchan va rasmiyatchilikdan xoli jarayon bo’lib, odatda bir necha sessiya yoki hatto bir necha soat ichida yakunlanishi mumkin. Bu xususiyat, ayniqsa, tez yechim talab qiladigan tijoriy, oilaviy yoki shaxsiy nizolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy xarajatlarni kamaytirish. Sud jarayonlari davlat boji, advokat xizmatlari, ekspertiza xarajatlari, hujjatlar tayyorlash va boshqa sud bilan bog’liq to’lovlar tufayli sezilarli moliyaviy sarf-xarajat talab qiladi. Mediatsiya ushbu xarajatlarni sezilarli darajada qisqartiradi, chunki jarayon sud jarayonlariga qaraganda ancha arzon va samarali hisoblanadi. Mediator xizmatlari, odatda sud xarajatlariga nisbatan arzonroq turadi. Bundan tashqari, mediatsiyaning qisqa muddatda yakunlanishi umumiy xarajatlarni yanada kamaytiradi, bu esa taraflarga moliyaviy jihatdan qulaylik yaratadi.

Maxfiylik va konfidensiallik. Mediatsiya jarayoni qonuniy jihatdan maxfiy ravishda olib boriladi va unda muhokama qilinadigan masalalar, hujjatlar yoki kelishuvlar uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi. Bu xususiyat tijorat sirlari, shaxsga doir ma’lumotlar bilan bog’liq nizolarni hal qilishda ayniqsa muhimdir. Sud jarayonlari aksariyat hollarda ochiq sud majlislarini o’z ichiga oladi, bu esa ma’lumotlarning ommaga oshkor bo’lishiga olib kelishi mumkin. Mediatsiyada esa maxfiylik kafolati taraflarga o’z manfaatlarini xavfsiz himoya qilish imkonini beradi.

Taraflarning mustaqilligi va o’z qarorlarini qabul qilish huquqi. Mediatsiya jarayonida mediator faqat vositachi sifatida xizmat qiladi, ya’ni u nizoni hal qilishda yakuniy qaror qabul qilmaydi. Qaror qabul qilish huquqi to’liq nizoli taraflarga tegishli bo’lib, ular o’zaro kelishuv asosida o’z manfaatlariga mos keluvchi yechimni ishlab chiqadilar. Bu sud jarayonlaridan tubdan farq qiladi, chunki sudda qaror sudya yoki sud kollegiyasi tomonidan qabul qilinadi va bu qaror taraflarning har ikki tomon uchun qulay bo’lmasligi mumkin. Mediatsiyada esa kelishuvning adolatli va har ikki tomon uchun maqbul bo’lishi ta’minlanadi.

³ Xakberdiyev, A., Mamasiddiqov, M. Nizolarni muqobil hal etish usullari. Toshkent: TDYU Elektron kutubxonasi, 2025.
<https://library-tsul.uz/nizolarni-muqobil-hal-etish-usullari-xakberdiyev-a-mamasiddiqov-m-2025/>

Jarayonning moslashuvchanligi. Mediatsiya sud protseduralariga xos qat'iy huquqiy me'yorlar va rasmiyatchiliklardan xoli bo'lib, taraflarga moslashuvchan shartlarda muzokara olib borish imkonini beradi. Jarayonning vaqti, joyi, formati va boshqa tafsilotlari taraflarning kelishuviga ko'ra belgilanishi mumkin. Masalan, mediatsiya neytral muhitda, qulay vaqt oralig'ida yoki hatto masofaviy shaklda tashkil etilishi mumkin. Bu esa jarayonni yanada samarali va taraflarga qulay qiladi.

O'zaro munosabatlarning saqlanishi. Mediatsiya nizolarni do'stona va hamkorlik ruhida hal qilishga yordam beradi, bu esa taraflar o'rtasidagi munosabatlarni saqlab qolish yoki tiklash imkonini beradi. Masalan, biznes sheriklari, oila a'zolari, qo'shnilar yoki hamkorlar o'rtasidagi nizolarda mediatsiya kelajakda hamkorlikni davom ettirish uchun zamin yaratadi. Sud jarayonlari esa ko'pincha qarama-qarshilikni yanada kuchaytirib, munosabatlarni butunlay buzishi mumkin.

Psixologik jihatdan qulaylik. Sud jarayonlari rasmiy muhit, qarama-qarshi tomonlarning keskin pozitsiyalari, uzoq davom etadigan protseduralar va qonuniy jarayonlarning murakkabligi tufayli taraflarda stress, emotsional zo'riqish va noqulaylik keltirib chiqarishi mumkin. Mediatsiya esa neytral va tinch muhitda, konstruktiv muloqot sharoitida olib boriladi. Mediatorning vositachilik roli taraflarni ochiq muloqotga undaydi va nizoni hal qilishda psixologik bosimni kamaytiradi.

Sudgacha mediatsiya vaqt va moliyaviy resurslarni tejash, maxfiylikni ta'minlash, taraflarga mustaqillik berish, moslashuvchanlik, munosabatlarni saqlash va psixologik qulaylik kabi afzalliklari bilan ajralib turadi. Ushbu usul nafaqat nizolarni samarali hal qilishga yordam beradi, balki qonuniy jihatdan barqaror va adolatli yechimlarni ta'minlaydi.

Sud jarayonidagi mediatsiya

Mediatsiya nizoni sud tartibida ko'rish jarayonida ham qo'llanilishi mumkin. Bunda mediatsiya sud hujjatini qabul qilish uchun sud alohida xonaga (maslahatxonaga) kirguniga qadar amalga oshiriladi. Sud jarayonidagi mediatsiya nizolarni sud tartibida ko'rish jarayonida muqobil yechim sifatida qo'llaniladigan samarali usul bo'lib, u fuqarolik va iqtisodiy nizolarni hal qilishda qonuniy asosga ega. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni, Fuqarolik protsessual kodeksi⁴ hamda Iqtisodiy protsessual kodeksi⁵ga muvofiq, mediatsiya sud jarayonida nizoni hal qilishning ixtiyoriy usuli sifatida qo'llanilishi mumkin. Ushbu jarayon quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Mediatsiyaga murojaat qilish –

Mediatsiya sud jarayoni boshlanganidan so'ng, lekin birinchi instansiya sudida sud alohida xonaga (maslahatxonaga) sud hujjatini (qaror, ajrim yoki hukm) qabul qilish uchun chiqquniga qadar har qanday bosqichda tashkil etilishi mumkin. Taraflar yoki ularning vakillari sudga mediatsiya o'tkazish to'g'risida iltimosnoma bilan murojaat qiladilar.

Iltimosnoma yozma shaklda taqdim etiladi va unda mediatsiya o'tkazish muddati, mediatorning shaxsi (agar tanlangan bo'lsa) va boshqa zarur ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Sud jarayonini to'xtatib turish –

Fuqarolik protsessual kodeksi 116-moddasi 6-bandiga ko'ra, sud mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish uchun ish yuritishni to'xtatib turishi mumkin. To'xtatib turish

⁴ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi <https://lex.uz/docs/-3517337>

⁵ O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi <https://lex.uz/uz/docs/-3523891>

muddati odatda 60 kundan oshmaydi, ammo qonunda nazarda tutilgan holatlarda bu muddat qisqartirilishi yoki uzaytirilishi mumkin.

To'xtatib turish mediatsiyaning muvaffaqiyatli yakunlanishiga imkon berish uchun zarur bo'lib, bu davrda taraflar mediator yordamida muzokara olib boradilar. Mediator neytral vositachi sifatida ishlaydi va taraflarga o'zaro kelishuvga erishishda yordam beradi. Mediatorning qarori majburiy kuchga ega emas, lekin kelishuv sud tomonidan tasdiqlansa, huquqiy jihatdan majburiy bo'ladi.

Kelishuvning rasmiylashtirilishi –

Agar mediatsiya muvaffaqiyatli yakunlansa, taraflar o'zaro kelishuvni yozma shaklda rasmiylashtiradilar. Ushbu kelishuv sud tomonidan tasdiqlanadi.

Kelishuv notarial tasdiqlanishi ham mumkin, bu esa uni ijro etiladigan hujjat sifatida qabul qilish imkonini beradi.

Sud jarayonida mediatsiyaning qo'llanilishi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Iqtisodiy protsessual kodeksiga ko'ra, ayrim iqtisodiy nizolar bo'yicha mediatsiya qonunda yoki taraflar o'rtasidagi shartnomada majburiy tartibda nazarda tutilgan bo'lsa, da'vogar ushbu tartib-taomilga rioya qilishi shart. Agar da'vogar mediatsiyani o'tkazmagan bo'lsa, sud da'vo arizasini ko'rib chiqmasdan qoldirishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, tijoriy shartnomalarda mediatsiya sharti ko'rsatilgan bo'lsa, amaliyotda juda ko'p uchraydi. Shuningdek, agar taraflar mediatsiya o'tkazish to'g'risida iltimosnoma bilan murojaat qilgan bo'lsalar, lekin belgilangan muddat tugagach, uzrli sabablarsiz sud majlisiga kelmagan bo'lsalar, sud da'vo arizasini ko'rib chiqmasdan qoldirishi mumkin. Bu taraflarning mediatsiya jarayoniga jiddiy yondashishini ta'minlash uchun qo'llaniladi.

Mediatsiya jarayoni sud jarayonidagi ochiq sud majlislaridan farqli o'laroq, maxfiy ravishda olib boriladi. "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun 6-moddasiga ko'ra, mediator va taraflar jarayon davomida olingan ma'lumotlarni oshkor qilmaslikka majburlar. Bu tijoriy yoki shaxsiy nizolarda maxfiylikni ta'minlash uchun muhimdir.

Mediatsiya ixtiyoriy jarayon bo'lib, taraflar o'z xohishlariga ko'ra unda ishtirok etadilar. Mediator faqat jarayonni boshqaradi, lekin qaror qabul qilish huquqi to'liq taraflarga tegishli. Bu sud jarayonidagi sudyaning qaror qabul qilish vakolatidan farq qiladi.

Sud jarayonida mediatsiyaning qo'llanilishi quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

Vaqtni tejash. Mediatsiya sud jarayonini sezilarli darajada qisqartiradi, chunki u uzoq davom etadigan sud majlislari va protsessual harakatlarni talab qilmaydi. 60 kunlik muddat ichida nizo hal qilinishi mumkin, bu esa sudning yuklanishini kamaytiradi va taraflarga tezroq yechim topish imkonini beradi.

Moliyaviy xarajatlarni kamaytirish. Mediatsiya sud jarayoniga nisbatan ancha arzon bo'lib, advokat xizmatlari, davlat boji va boshqa sud xarajatlarini minimallashtiradi. Bu, ayniqsa, moliyaviy resurslari cheklangan jismoniy va yuridik shaxslar uchun juda muhimdir.

Maxfiylik. Mediatsiya jarayonidagi maxfiylik tijorat sirlari, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Sud majlislari ochiq bo'lishi mumkin bo'lsa, mediatsiya bu ma'lumotlarning ommaga oshkor bo'lishini oldini oladi.

Taraflarning mustaqilligi. Mediatsiyada taraflar o'z manfaatlariga mos keluvchi yechimni o'zlari ishlab chiqadilar, bu esa sud qaroriga qaraganda ko'proq qoniqish hosil qiladi. Kelishuvning adolatli va har ikki tomon uchun maqbul bo'lishi ta'minlanadi.

Huquqiy kafolatlar. Mediatsiya natijasida erishilgan kelishuv sud tomonidan tasdiqlansa yoki notarial ravishda rasmiylashtirilsa, majburiy ijro etiladigan hujjat sifatida tan olinadi. Bu kelishuvning barqarorligini va qonuniy kuchga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Sud jarayonida mediatsiya nizolarni samarali, tejamkor va do'stona hal qilish imkonini beruvchi muqobil usul sifatida muhim ahamiyatga ega. U vaqt va moliyaviy resurslarni tejash, maxfiylikni ta'minlash, taraflarga mustaqillik berish va munosabatlarni saqlash kabi afzalliklari bilan ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi va Iqtisodiy protsessual kodeksiga muvofiq, mediatsiya jarayoni qat'iy huquqiy me'yorlarga asoslanadi va sud tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Sudgacha va sud jarayonidagi mediatsiyani qiyosiy tahlil qilish ularning o'xshashliklari va farqlarini aniqlashga yordam beradi. Quyidagi jadvalda asosiy farqlar umumlashtirilgan:

Jihat	Sudgacha mediatsiya	Sud jarayonidagi mediatsiya
Ixtiyoriylik	To'liq ixtiyoriy, tomonlar mustaqil ravishda qaror qabul qiladi	Sudya taklifi bilan boshlanishi mumkin, qisman majburiylik
Moslashuvchanlik	Yuqori, jarayon tomonlar ehtiyojlariga moslashtiriladi	Cheklangan, sudning rasmiy talablari va muddatlari ta'sir qiladi
Maxfiylik	To'liq maxfiylik ta'minlanadi	Sud hujjatlari ochiqligi tufayli qisman cheklangan
Yuridik oqibatlar	Kelishuv sud tasdig'isiz ixtiyoriy ijro etiladi	Kelishuv sud tomonidan tasdiqlanib, majburiy ijro etiladi
Xarajatlar	Sud xarajatlariga nisbatan arzon	Sud yig'implari va boshqa xarajatlar tufayli qimmatroq
Vaqt	Moslashuvchan, tomonlarning kelishuviga bog'liq	Sud jarayonining qat'iy muddatlari bilan cheklangan

Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, sudgacha mediatsiya tomonlarga ko'proq erkinlik va moslashuvchanlik beradi, sud jarayonidagi mediatsiya esa sud tizimining rasmiy doirasida amalga oshiriladi va ko'proq nazorat qilinadi. Har ikkala shakl ham nizolarni hal etishda samarali bo'lsa-da, ularning qo'llanilishi nizo turi va tomonlarning ehtiyojlariga bog'liq.

Shu holatda birgina misolni ko'rib chiqadigan bo'lsak, oilaviy munosabatlarda mediatsiyani qo'llash nazarda tutilganligini inobatga olib, nikohdan ajralish masalasi, er-xotinning mol-mulkini bo'lish masalasi, qolaversa aliment undirish masalasi sud orqali hal qilinadi. Shuningdek, er-xotinning mol-mulkini bo'lishni o'zaro kelishgan holda ixtiyoriy amalga oshirishlari va aliment undirish masalasini notariusda aliment kelishuvi qilishlari ham mumkin. Lekin ko'pchilik holatlarda er-xotinning o'rtasida kelishmovchilik saqlanib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-moddasida voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmaganda yoki aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmaganda va ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo yoxud ariza bilan murojaat qilmagan hollarda, vasiylik va homiylik organlari, shuningdek o'n to'rt

yoshga to'lgan bola voyaga yetmagan bolaning ta'minoti uchun ota yoki onadan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqlidir deb ko'rsatilgan⁶.

Endi shu joyda ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmaganda deyilgan, ularning o'rtasida kelishuvi notarial tartibda tuzilishi kerak. Demak, ota-onalarning o'rtasida aliment masalasida kelishmovchilik yuzaga kelganda mediatsiyani qo'llash mumkin. Mediativ kelishuvda ota-onalar aliment to'lash haqidagi kelishuvni notarial tartibda amalga oshirishlari majburiyatlarini olishlari mumkin. Bu degani agarda mediatsiya natijalariga ko'ra ular kelishuvga erishsalar, notarial tartibda aliment to'lash haqidagi kelishuvni tuzishlari mumkin, chunki bu joyda hech qanday qonun buzilish holati bo'lmaydi. Agarda aliment to'lovchi alimentni ixtiyoriy to'lamasa, aliment oluvchi notariusdan ijro varaqasi olib, ijro varaqasini Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosiga topshirishi mumkin. Bu bilan ularning o'rtasidagi munosabat sudsiz hal qilinadi.

Endi nikohdan ajratish va er-xotinning mol-mulkini bo'lish masalasida ham mediatsiya qo'llasa bo'ladi. To'g'ri, bu masalalar sud orqali hal etilishi qonunda belgilangan, ammo er-xotin o'rtalarida mediatsiya qo'llanilgan va uning natijasiga ko'ra mediativ kelishuvga erishgan bo'lsalar, ushbu mediativ kelishuvni sudga topshirishlari mumkin⁷. Ya'ni, unda nima sababdan ajrashayotlarini, oilani saqlab qolish mumkin yoki mumkin emasligi, o'rtalaridagi mol-mulkni bo'lish masalasi, qolaversa farzandlari kim bilan yashashligi yoki qolishi, ular bilan ko'rishib turish masalalarini, xususan aliment to'lash masalasini o'zaro kelishgan holda hal qilishlari mumkin. Bu esa er-xotin tomonidan mediativ kelishuvni sudga taqdim qilishganda sud tomonidan ish ko'rib chiqilishida o'zining samarasini beradi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerak-ki, oilaviy munosabatlarda mediatsiya qo'llanilganda yurist va psixologlar qatnashgani ma'qul. Sababi oilaviy munosabatlarda stress holatlari juda ko'p uchraydi, shu bilan birga huquqiy hujjatlar tuziladi. Ya'ni, huquqiy hujjatlar tuzilganda, bir tarafning huquqi, muomila layoqati cheklanishi mumkin emas. Stressli holatlarda psixolog ishtirok etsa, huquqiy hujjatlarni tuzishda, taraflarga qonunchilik bilan bog'liq bo'lgan holatlarni va oqibatlarini tushuntirishda yurist ishtirok etadi.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, mediatsiya instituti O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimida nizolarni hal etishning muqobil usuli sifatida keng qo'llanilib, huquqiy islohotlar doirasida muhim o'rin tutmoqda. Sudgacha va sud jarayonidagi mediatsiya bir-birini to'ldirib, nizolarni tezkor, tejamkor va samarali hal etish imkonini beradi. Biroq, institutning barqaror rivojlanishi va to'liq potentsialini ochib berishi uchun bir qator muhim masalalar mavjud bo'lib, ular kompleks yechimlarni talab qiladi.

"Mediatsiya to'g'risida"gi O'RQ-482-son qonun va tegishli protsessual kodekslarga kiritilgan o'zgarishlar mediatsiya institutining huquqiy asoslarini mustahkamladi. Biroq, qonunchilik hali ham takomillashtirish jarayonida bo'lib, amaliyotda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun yangi normalar kiritilishi zarur. Xususan, mediativ kelishuvlarning ijro mexanizmlari, mediatorlarning professional javobgarligi va mediatsiya jarayonida maxfiylik tamoyillarini buzishning oqibatlari yanada aniqroq tartibga solinishi kerak.

⁶ S.Maripova. Oilaviy mediatsiyaning huquqiy tartibga solinishi va rivojlanish istiqbollari. Elektron manba. <https://uza.uz/ru/posts/pravovoe-regulirovanie-i-perspektivy-razvitiya-semeynoy-medi-02-10-2019>

⁷ S. Maripova, "Fuqarolik protsessida mediatsiyani qo'llash: qiyosiy-huquqiy tahlil." 2022.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi mediatsiya sohasida ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Onlayn mediatsiya platformalarining joriy etilishi, video konferenslar orqali mediatsiya sessiyalarini o'tkazish, raqamli hujjatlarni boshqarish tizimlarining yaratilishi mediatsiya jarayonini yanada qulay va samarali qilish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, geografik jihatdan uzoq joylarda joylashgan taraflar uchun muhim ahamiyatga ega.

Viloyat va tuman darajasida ixtisoslashgan mediatsiya markazlarining tashkil etilishi mediatsiya xizmatlarining sifatini oshirish va ularga kirish imkoniyatini kengaytirish uchun zarur. Ushbu markazlar professional mediatorlarni jalb etish, mediatsiya seanslarini o'tkazish uchun qulay sharoitlar yaratish va taraflarga konsultatsiya berish funktsiyalarini bajarishi mumkin.

Mediatsiya instituti O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimida nizolarni hal etishning progressiv usuli sifatida o'z samaradorligini isbotlagan. Sudgacha va sud jarayonidagi mediatsiya bir-birini to'ldirib, taraflarga qulay va tejamkor yechim topish imkonini beradi. Institutning kelgusi rivoji O'zbekiston jamiyatida huquqiy madaniyatni mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va fuqarolarning huquqiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimiz huquqiy tizimining modernizatsiyasiga muhim hissa qo'shadi va xalqaro standartlarga muvofiq rivojlanish imkonini beradi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'RQ-482, 3 iyul 2018. <https://lex.uz/uz/docs/-3805227>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, PQ-4754, 17 iyun 2020. <https://lex.uz/ru/docs/-4859436>
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi <https://lex.uz/docs/-3517337>
4. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi <https://lex.uz/uz/docs/-3523891>
5. A. Xakberdiyev, M. Mamasiddiqov. *Nizolarni muqobil hal etish usullari*. Toshkent: TDYU Elektron kutubxonasi, 2025. <https://library-tsul.uz/nizolarni-muqobil-hal-etish-usullari-xakberdiyev-a-mamasiddiqov-m-2025/>
6. S.Maripova. Oilaviy mediatsiyaning huquqiy tartibga solinishi va rivojlanish istiqbollari. Elektron manba. <https://uza.uz/ru/posts/pravovoe-regulirovanie-i-perspektivy-razvitiya-semeynoy-medi-02-10-2019/>